

## GEOGRAFIK QOBIQ VA UNING XUSUSIYATLARI HAqidagi TA'LIMOTNI INTERFAOL METODLAR YORDAMIDA O'RGANISH

Riskimov Samandar Hakimjon o'g'li  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
Tabiiy fanlar fakulteti  
Geografiya o'qitish metodikasi yo'nalish talabasi

**Annotatsiya:** Pedagogik muloqot o'rnatish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishga ehtiyoj tug'iladi. Bu texnologiyalardan biri interaktiv dars usullaridir. Maqolada Geografik qobiq va uning xususiyatlarini o'rganishda interfaol metodlardan foydalanish to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Аннотация:** Существует необходимость использования современных инновационных технологий для налаживания педагогического диалога. Одной из таких технологий являются интерактивные методы обучения. В статье представлена информация об использовании интерактивных методов при изучении географической коры и ее особенностей.

**Annotation:** Freight transportation is born from modern innovative technologies to establish a pedagogical dialogue. One of these technologies is interactive teaching methods. The article provides information on the use of geographic information and interactive methods in learning with it.

**Kalit so'zlar:** interaol, internet, google earth, geografik qobiq, galereyani aylanish, kritik vaziyat, panorama

**Ключевые слова:** интераол, интернет, Google Earth, географическая оболочка, ротация галереи, критическая ситуация, панорама

**Key words:** interaol, internet, google earth, geographical shell, gallery rotation, critical situation, panorama

### KIRISH

Pedagogik jarayonni tashkil etishda har bir talabaning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish zarur. Pedagogik muloqot o'rnatish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanishga ehtiyoj tug'iladi. Bu texnologiyalardan biri interaktiv dars usullaridir.

Lotinchadan “inter-o'zaro”, “akt-muloqot, yaqinlik”dir. Interaktiv usullardan foydalanishdan maqsad shuki, darslarni qiziqarli, sermazmun, eng muhimi samarali qilib o'tkazishdir. Bunda talabaning bilimi ortadi, shaxsiyati dunyo qarashi yanada yaxshi shakillanadi va o'quv jarayonining maxsuldarligi ko'payadi. Ma'lumki yaxshi o'zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o'tirish yetarli emas, balki shu material ustida faol ishslash, o'ylab ko'rish, muhokam qilib chiqish, yordamchi vazifalar bajarish kerak. Hozirgi paytda biz pedagoglarning asosiy vazifamizdan biri talabada mustaqil shug'ullanish malakasini hosil qilishdir. Interaktiv usullardan foydalanilganda talabaning barcha psixik jarayonlari idrok

ong, diqqat, tasavvur, tafakkuri ishga tushib, muammoni yechish uchun izlanishga, qidirishga, fikrni rivojlantirishga yo'naltiriladi. Interfaol usullarga: "miya hujumi", mojaro metodi, "dumaloq stol", "uch bosqichli interyu", "muammolarni hal qilish metodi", "stol o'rtasidagi ruchka", "galereyani aylanish", "akademiik munozara", "qor bo'ron" metodi, "asalari galasi", "kritik vaziyatni tahlil qilish" va boshqalar kiradi.

Bu metodlarni afzalliklariga shularni aytishimiz mumkin. Qatnashchilarga o'z g'oyalari va fikrlari bilan ko'proq o'rtoqlashish, ularning bir-biridan o'rganishi uchun imkon beradi. Kichik guruhlarda qatnashchilar katta guruhda aytishlari mumkin bo'lgan fikrlardan boshqacha fikrlarni aytishlari mumkin.

Diqqat markazini pedagogdan qatnashchilarga ko'chiradi. Qatnashchilarni o'z ustilarida ko'proq mas'uliyat olishga majbur qiladi.

Asosiy qism. Google Earth dasturi asosida

O'rta ta'limgangi geografiya darslarining deyarli barcha mavzularini o'qitishda geografik xaritalar va atlaslar kerak bo'ladi. Xarita hududni tasviriy usuli orqali o'quvchilarga tushuntirishda eng yaxshi vositadir. Shu bilan birgalikda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taqdim etayotgan dasturiy mahsulot imkoniyatlardan foydalanish ham ahamiyatga ega.

Shunday dasturlardan biri "Google Earth" dasturi bo'lib bu dastur Google kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan. Bu metod asosan kompyuter dasturi bo'lib bu metoddan foydalanish uchun kompyuter manitor, multimedia qurilmasi zarur bo'ladi. Dastur to'liq elektron tizimda ishlagani sabab voqeа hodisalar real hayotda ro'y beradi. Shuning uchun bu dastur yordamida olingan ma'lumotlar to'liq va mukammal bo'ladi.

Google Earth dasturining ishlash tizimi koinotdagi bir qancha sun'iy yo'l doshlar yordamida Yer sharining hozirgi holati tasvirga olinadi va dasturga yuboriladi. Hozirgi ko'rinishga ega dastur ilk bor 2001-yilda ishlab chiqilgan. "Google Earth" dasturi katta masofadan yagona tasvir yordamida sayyora yuzasini aks ettiradigan raqamli globus sifatida namoyish etiladi. Dastur bu tasvirlarni 3D ko'rinishga keltiradi. Kerakli obyektlarni kattalashtirib ko'rish imkoniyati mavjud. Dasturning geografiya fani uchun ahamiyatli jihat shundaki, unda Yer yuzasini va uning barcha qismlarni ta'svirlab beruvchi, iborali qilib aytganda "mayda masshtabdan-yirik masshtabgacha" ko'rish imkoniyatiga ega. Bu dastur yordamida o'quvchilarning tasavurida Yer sayyorasi nafaqat yer balki undan tabiat komponentlari ( tog'lar, okean, dengiz, daryo, ko'llar, o'rmonlar va bosh), ko'chalar ko'rinishida, shahar ko'chalari va ularning atroflari to'liq aylanuvchi panoramic fotosuratlar namoyish etiladi. Rasmlar avtomobilarga o'rnatilgan kameralar yordamida olinadi. Panoramalarni turli xil o'Ichovlarda turli burchaklarda ko'rish mumkin. Bundan tashqari foydalanuvchilar uchun juda ko'p qo'shimcha ma'lumotlar mavjud. Masalan: aholi punktlari, daryo va ko'llar joylashuvi va nomi, suv omborlari, aeroportlar, avtomobil vat emir yo'l stansiyalari kabi ma'lumotlar keltirilgan bo'ladi va yaqol va reallikga yaqin holda korinadi. Bundan tashqari har bir materikdagi davlatlar va ularning geografik o'rni, chegarasi va hududi yaqol tasvirlanadi. Bundan tashqari dasturda mamlakatlar va

shaharlardagi diqqatga sazovor joylarning 3D binolar platformasi joylashtirilgan. Shuningdek dasturda o'quvchilarning nafaqat Yer sayyorasi balki koinot va boshqa sayyoralar haqida ham bilimlarini oshirish imkoniyati mavjud bo'lib, Koinot, Galaktikalar, Sayyoralar (xususan Mars sayyorasi va Oy yuzalarining tasviri ham joylashtirilgandir. Hozirda bu dasturning yanada avzal tomoni mobil qurulmalar uchun ham tayyorlangan versiyasi mavjud bu esa o'z navbatida o'quvchilarni nafaqat darsda balki darsdan tashqari vaqtida ham foydalanim o'zlariga kerakli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

- [1]. Baratov P. "Yer bilimi va o'lkashunoslik",
- [2]. Baratov P., Sultanov N.B. "Umumiyl yer bilimi", //pedagogikaga oid Ishmuxamedov P., Abduqodirov A., Pardayev A.
- [3]. Darinsky A.V. New approaches to teaching economic and social geography in Russia in the context of the transition to a market economy. // Geography at school. 2000. - No. 1. - P. 48-52.
- [4]. Zhuchkevich V.A. On the methods of teaching geography at school. Minsk: Narodna osvita, 1967 .-- 144 p.
- [5]. Maksakovskiy V.P. Modern and promising problems of school geography. // Geography at school. 1996. - No. 4, pp. 35 - 40.
- [6]. Maksakovskiy V.P. "Geographic culture", M., 1998, p. 212-213.
- [7]. Ivanova S.A. The system of statistical methods in teaching geography.//Russia: dis. Cand. ped. sciences. St. Petersburg, 2009.167 p.
- [8]. <https://studentopedia.ru/>
- [9]. <https://geografiya.uz/e-kutubxona/>
- [10]. [https://mybook.ru/tags/zimateelnaya-geografiya/](https://mybook.ru/tags/zanimatelnaya-geografiya/)
- [11]. <https://www.researchgate.net/>
- [12]. <https://ilmiy.bmti.uz/>